



TA'LIM MUASSASALARIDA AN'ANAVIY USTOZ-SHOGIRD TIZIMI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Ilmiy rahbar:

Xaydarova Oliy Kaxxorovna

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Muallif:

Sherqulova Oqila Bahramovna

Iqdisodiyot va pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur ishda ta'lim muassasalarida an'anaviy ustoz-shogird tizimi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi masalalari yoritiladi. Ustoz-shogird an'anasi milliy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va kasbiy mahoratni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bugungi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlarning kirib kelishi ushbu tizimni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unlashuvi orqali ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda pedagoglarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur integratsiyaning amaliy ahamiyati va uni ta'lim muassasalarida qo'llashning samarali yo'llari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ustoz-shogird tizimi, an'anaviy ta'lim, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, integratsiya, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mahorat, o'quv jarayoni, kasbiy rivojlanish.

Annotation. This work discusses the issues of the integration of the traditional teacher-student system and modern pedagogical approaches in educational institutions. The teacher-student tradition, as an important component of the national education system, is of great importance in the formation of



knowledge, skills and professional competence in students. At the same time, the introduction of innovative technologies, interactive methods and competency-based approaches into the educational process today is taking this system to a new level. The work analyzes the possibilities of increasing educational efficiency, developing independent thinking of students and strengthening the professional potential of teachers through the combination of traditional and modern approaches. The practical significance of this integration and effective ways of its application in educational institutions are also substantiated.

Keywords: teacher-student system, traditional education, modern pedagogical approaches, integration, innovative technologies, interactive methods, educational effectiveness, competency-based approach, pedagogical skills, educational process, professional development.

Аннотация. В данной работе рассматриваются вопросы интеграции традиционной системы «учитель-ученик» и современных педагогических подходов в образовательных учреждениях. Традиция «учитель-ученик», как важная составляющая национальной системы образования, имеет большое значение в формировании знаний, навыков и профессиональной компетентности учащихся. В то же время внедрение инновационных технологий, интерактивных методов и компетентностно-ориентированных подходов в образовательный процесс сегодня выводит эту систему на новый уровень. В работе анализируются возможности повышения эффективности обучения, развития самостоятельного мышления учащихся и укрепления профессионального потенциала учителей посредством сочетания традиционных и современных подходов. Также обосновывается практическая значимость такой интеграции и эффективные пути ее применения в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: система «учитель-ученик», традиционное образование, современные педагогические подходы, интеграция, инновационные технологии, интерактивные методы, эффективность



обучения, компетентностно-ориентированный подход, педагогические навыки, образовательный процесс, профессиональное развитие.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyat bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonini takomillashtirish, uning mazmuni va metodlarini yangilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy ustoz-shogird tizimi o'zining tarbiyaviy va amaliy jihatlari bilan alohida o'rin tutadi. Ushbu tizim nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion usullar keng joriy etilmoqda. Bu esa o'z navbatida, an'anaviy ta'lim shakllarini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, ustoz-shogird tizimini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning mustaqil faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim muassasalarida an'anaviy tajribalar bilan innovatsion yondashuvlarni birlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ustoz-shogird tizimi asosida shakllangan individual yondashuv, tajriba almashish va bevosita muloqot kabi jihatlar zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilganda yanada samarali natijalar beradi. Shu bois, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Mazkur ishning maqsadi ta'lim muassasalarida an'anaviy ustoz-shogird tizimi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning integratsiyasini o'rganish, ularning o'zaro uyg'unlashuvi orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shu asosda, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagoqlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish hamda o'quvchilarning bilim olish sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.



Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ustoz-shogird tizimi qadimdan pedagogikaning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xalq pedagogikasiga oid tadqiqotlarda ustoz-shogird munosabatlari nafaqat bilim berish jarayoni, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida talqin etiladi. Jumladan, ayrim ilmiy ishlarda ushbu tizimning tarixiy ildizlari, uning shaxs kamolotiga ta'siri hamda jamiyatdagi qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni keng yoritilgan. Bu yondashuv ustoz-shogird tizimining faqat ta'limiy emas, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham ochib beradi. Bir qator tadqiqotchilar ustoz-shogird tizimining afzalliklariga alohida e'tibor qaratib, ustozdan ta'lim olgan shaxslarning kasbiy jihatdan puxta tayyorlanishi va boshqalardan ajralib turuvchi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ustoz va shogird o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat, hurmat va hamkorlik munosabatlari pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko'riladi. Bu esa mazkur tizimning bugungi ta'lim tizimida ham dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy ilmiy manbalarda esa ustoz-shogird tizimini innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida o'rganilgan. Tadqiqotlarda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron ta'lim vositalari bilan integratsiya qilish orqali ushbu tizimning samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab beriladi. Ayniqsa, an'anaviy ustoz-shogird munosabatlarini raqamli ta'lim muhiti bilan bog'lash o'quvchilarning faolligini oshirishi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Bundan tashqari, ayrim ilmiy ishlar ustoz-shogird tizimini pedagog kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida baholaydi. Ushbu yondashuvda ustoz o'z tajribasini bevosita shogirdga yetkazishi orqali kasbiy kompetensiyalar shakllanishi, pedagogik mahorat va ijodkorlik rivojlanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, individual ta'limni tashkil etishda ham ustoz-shogird tizimi samarali mexanizm sifatida qaralib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini berishi ko'rsatib o'tiladi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosiga oid manbalarda ham ustoz-shogird munosabatlari alohida o'rin tutadi. Ular ushbu tizimni ilm olish, axloqiy yetuklik va komil insonni



tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida baholaganlar. Bu esa mazkur tizimning nazariy asoslari chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar ustoz-shogird tizimi an'anaviy pedagogikaning muhim elementi bo'lib, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish va amaliy tajribalarni kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta'lim muassasalarida an'anaviy ustoz-shogird tizimi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslanib, muammoni har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, didaktika hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish tashkil etdi. Ushbu bosqichda ustoz-shogird tizimining tarixiy rivojlanishi, uning mazmun-mohiyati hamda zamonaviy yondashuvlar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar, innovatsion metodlar va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar solishtirma tahlil qilindi. Amaliy tadqiqotlar jarayonida kuzatish, suhbat, so'rovnoma va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali ta'lim muassasalarida ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar, dars jarayonida qo'llanilayotgan metodlar hamda ularning samaradorligi o'rganildi. Suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida pedagoglar va o'quvchilarning mazkur tizimga bo'lgan munosabati, fikr-mulohazalari hamda takliflari aniqlandi. Bu esa mavzuga doir real holatni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tajriba-sinov ishlari orqali an'anaviy ustoz-shogird tizimini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilishning samaradorligi tekshirildi. Tajriba jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda individual yondashuv elementlari qo'llanilib, ularning o'quvchilarning bilim darajasi va faolligiga ta'siri aniqlashtirildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi



baholandi. Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil metodlaridan ham foydalanilib, olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va ularning ishonchliligi ta'minlandi. Natijalar diagramma va taqqoslashlar orqali izohlandi, bu esa ilmiy xulosalarning aniq va asosli bo'lishiga xizmat qildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya tadqiqot mavzusini tizimli ravishda o'rganish, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning integratsiyasini baholash hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida an'anaviy ustoz-shogird tizimini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, ustoz va shogird o'rtasidagi bevosita muloqot, individual yondashuv hamda tajriba almashish jarayonlari zamonaviy interfaol metodlar bilan boyitilganda o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi kuzatildi. Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning darslarga qiziqishi ortgani, ularning faol ishtiroki kuchaygani hamda bilimlarni amaliyotda qo'llashga intilishi oshgani aniqlandi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ustoz-shogird munosabatlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qildi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham mustahkamlash imkonini berdi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, an'anaviy ustoz-shogird tizimining kuchli jihatlari — individual yondashuv, tarbiyaviy ta'sir va bevosita tajriba uzatish — zamonaviy yondashuvlarning innovatsion imkoniyatlari bilan uyg'unlashganda yanada yuqori natijalar beradi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ba'zi pedagoglarning zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalana olmasligi yoki an'anaviy yondashuvdan voz kechishga tayyor emasligi integratsiya jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ustoz-shogird tizimini samarali joriy etish uchun pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, ularni zamonaviy metodlar bilan tanishtirish hamda ta'lim muassasalarida zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlash va metodik



yordam ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, an'anaviy ustoz-shogird tizimi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ta'lim muassasalarida an'anaviy ustoz-shogird tizimi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ustoz-shogird tizimi o'zining tarbiyaviy, individual yondashuvga asoslanganligi hamda tajriba almashishga yo'naltirilganligi bilan ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur ikki yondashuvni o'zaro uyg'unlashtirish natijasida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy mahorati ham takomillashib, ular o'z faoliyatida yanada samarali metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ushbu integratsiyani samarali amalga oshirish uchun ta'lim muassasalarida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ustoz-shogird munosabatlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish va uni ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish zarur. Umuman olganda, an'anaviy ustoz-shogird tizimi va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, bilimli va har tomonlama rivojlangan shaxslarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. **Pedagogik texnologiya asoslari.** – Toshkent: O'qituvchi, 2014.



2. Ochilov M. **Yangi pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Fan, 2012.
3. To‘xtaxodjayeva M.X. **Pedagogika.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. **Ta’limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Iste’dod, 2013.
5. Xodjayev B.X. **Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Ziyomammedov B. **Pedagogik mahorat asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
7. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. **Ta’lim sifatini boshqarish.** – Toshkent: Fan, 2006.
8. Muslimov N.A. **Kasb ta’limi pedagogikasi.** – Toshkent: Fan, 2013.
9. Raxmonov A. **Ta’limda zamonaviy yondashuvlar.** – Toshkent: Tafakkur, 2018.
10. Abdullayeva Q. **Pedagogik innovatsiyalar va ularning tatbiqi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.